e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227

# IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 10

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

**ISSN 3060-5059 (Online)**
*Article / Original paper* https://doi.org/10.67227/jjw6p929

# ADABIY ME'YORNING BARQARORLIK VA O'ZGARUVCHANLIK XUSUSIYATLARI

**Egamnazarova Durdona Shuxratillayevna**
Qo'qon universiteti Andijon filiali, kafedra mudiri, dotsent.
**e-mail:** durdonajuraeva@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0000-0003-2510-0123

**Annotatsiya.**
Maqolada adabiy me'yorning barqarorlik va o'zgaruvchanlik xususiyatlari o'zbek va ingliz tillari materiallari asosida qiyosiy-sotsiolingvistik yo'nalishda tadqiq etilgan. Praga maktabi, rus va o'zbek me'yorshunosligi hamda G'arb sotsiolingvistikasining me'yor antinomiyasiga doir qarashlari tahlilga tortilib, barqarorlikning til sathlari bo'ylab notekis taqsimlanishi asoslab berilgan. Imlo, leksika va grammatikada me'yor harakatchanligini yuzaga chiqaruvchi ichki hamda tashqi omillar aniqlangan, variantlar raqobati negizida kechuvchi me'yor siljishining bosqichlari tavsiflangan. Ingliz tilida imloviy qat'iylik grammatik-leksik moslashuvchanlik bilan qo'shilib kelishi, o'zbek tilida esa grafik beqarorlik sharoitida ham grammatik o'zak o'z turg'unligini yo'qotmagani ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** adabiy me'yor, barqarorlik, o'zgaruvchanlik, variant, kodifikatsiya, egiluvchan barqarorlik, til siyosati, sotsiolingvistika.

# УСТОЙЧИВОСТЬ И ИЗМЕНЧИВОСТЬ ЛИТЕРАТУРНОЙ НОРМЫ

**Эгамназарова Дурдона Шухратиллаевна**
Андижанский филиал Кокандского университета, заведующая кафедрой, доцент.

**Аннотация.**
В статье исследуются свойства устойчивости и изменчивости литературной нормы на материале узбекского и английского языков в сравнительно-социолингвистическом аспекте. Анализируются взгляды представителей Пражской лингвистической школы, русской и узбекской теории языковой нормы, а также западной социолингвистики на антиномию языковой нормы. Обосновывается неравномерное распределение устойчивости по различным уровням языковой системы. Выявлены внутренние и внешние факторы, обусловливающие динамику нормы в орфографии, лексике и грамматике, охарактеризованы этапы нормативных изменений, происходящих на основе конкуренции языковых вариантов. Показано, что в английском языке орфографическая строгость сочетается с грамматико-лексической гибкостью, тогда как в узбекском языке даже в условиях графической нестабильности грамматическое ядро сохраняет свою устойчивость.

**Ключевые слова:** литературная норма, устойчивость, изменчивость, вариант, кодификация, гибкая устойчивость, языковая политика, социолингвистика.

# STABILITY AND VARIABILITY OF THE LITERARY LANGUAGE NORM

**Egamnazarova Durdona Shuxratillayevna**
Andijan Branch of Kokand University, Head of Department, Associate Professor.

**Abstract.**
The article examines the characteristics of stability and variability of the literary language norm based on Uzbek and English linguistic materials from a comparative sociolinguistic perspective. It analyzes the views of the Prague Linguistic School, Russian and Uzbek theories of language norms, and Western sociolinguistics concerning the antinomy of linguistic norms, substantiating the uneven distribution of stability across different levels of the language system. Internal and external factors contributing to normative changes in orthography, vocabulary, and grammar are identified, and the stages of norm shifts occurring through competition between linguistic variants are described. The study demonstrates that orthographic rigidity in English coexists with grammatical and lexical flexibility, whereas in Uzbek, the grammatical core retains its stability even under conditions of script instability.

**Keywords:** literary language norm, stability, variability, variant, codification, flexible stability, language policy, sociolinguistics.

**Kirish**. Til me'yori masalasi tilshunoslikda hech qachon kun tartibidan tushmagan, biroq XXI asr boshida u o'zgacha keskinlik kasb etdi. Globallashuv, raqamli kommunikatsiyaning shiddat bilan yoyilishi, ommaviy bilingvizm, qolaversa, til siyosatidagi burilishlar me'yorning an'anaviy chegaralarini qayta sinovdan o'tkazmoqda. Ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalar, reklama va internet nashrlari kodifikatsiyalangan qoidalarga ancha erkin munosabatda bo'ladi, holbuki, ta'lim tizimi hanuz qat'iy me'yoriy tamoyilni tutib turibdi. Natijada bir lisoniy hodisa jamiyatning turli

qatlamlarida turlicha baholanadi: kimdir yangi shaklda tilning boyishini ko‘rsa, boshqa birov uni buzilish alomati deb biladi.

O‘zbek tili uchun masala yanada o‘tkir tus olgan. 1989-yilda davlat tili maqomining berilishi [1], 1993-yilda lotin yozuviga asoslangan alifboning qonun bilan joriy etilishi [2], 2019-yilda davlat tilining nufuzi va mavqeini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning belgilanishi [3] adabiy me’yorni nisbatan qisqa tarixiy muddat ichida qayta ko‘rib chiqishni taqozo etdi. Bunday vaziyatda me’yorning qaysi qirralari o‘zgarmay qolishi, qaysilari yangilanishga moyilligini ilmiy asosda aniqlash nazariy qiziqish doirasidan chiqib, amaliy zaruratga aylandi. Lug‘atchilik, darslik yaratish, tahrir va tarjima amaliyoti aynan shu savolga javob kutmoqda.

Qiyos uchun ingliz tili ataylab tanlandi. Ingliz adabiy tili rasmiy akademiyasiz, markazlashmagan kodifikatsiya an’anasida shakllangan; o‘zbek tili me’yori, aksincha, davlat tomonidan tartibga solinuvchi markazlashgan modelga tayanadi. Tabiatan farqli bu ikki modelni yonma-yon qo‘yish me’yor barqarorligi va harakatchanligini belgilovchi omillarni aniqroq ajratib olish imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi adabiy me’yorning barqarorlik va o‘zgaruvchanlik xususiyatlarini o‘zbek va ingliz tillari materialida qiyosiy-sotsiolingvistik nuqtayi nazardan tavsiflash, ular o‘rtasidagi muvozanatni belgilovchi omillarni aniqlashdir. Ko‘zlangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar hal etildi: me’yor antinomiyasiga doir nazariy qarashlarni umumlashtirish; barqarorlikning til sathlari bo‘ylab taqsimlanishini qiyoslash; o‘zgaruvchanlikning ichki va tashqi manbalarini tasniflash; variantlar raqobati orqali yuz beradigan me’yor siljishi bosqichlarini tavsiflash.

**ADABIYOTLAR TAHLILI**

Me’yorning ichki ziddiyatli tabiati haqidagi ilk izchil nazariy qarashlar Praga lingvistik to‘garagi davrasida shakllangan. V. Matezius 1932-yilda adabiy tilga nisbatan “egiluvchan barqarorlik” (chex. pružná stabilita) talabini ilgari surgan. Uning fikricha, me’yor qotib qolgan qolip emas: u tilni tasodifiy tebranishlardan himoya qilishi, ayni paytda yangilanishga ham yo‘l qoldirishi kerak [4]. B. Gavranek adabiy tilning funksional tabaqalanishiga e’tibor qaratib, me’yor talablari turli uslublarda turlicha qat’iylik bilan namoyon bo‘lishini ko‘rsatib bergan [5]. E. Koseriu me’yorni tizim bilan nutq oralig‘idagi mustaqil qatlam sifatida talqin etadi: tizim yo‘l qo‘ygan imkoniyatlardan jamoa an’ana tarzida tanlab olganlari me’yorni tashkil qiladi [6]. Bu yondashuv o‘zgaruvchanlik manbasini izohlashda g‘oyat qulay, zero, tizim ochiq qoldirgan, me’yor esa hali o‘zlashtirmagan shakllar zaxirada turadi va ijtimoiy ehtiyoj tug‘ilgan zahoti faollashadi.

Rus me’yorshunosligida muammo ko‘proq variativlik nazariyasi doirasida ishlangan. V. A. Itskovich variantlar mavjudligini me’yorning buzilishi deb emas, uning tabiiy yashash shakli deb baholagan [7]. K. S. Gorbachevich nisbiy barqarorlik, keng tarqalganlik, umummajburiylik va til tizimi imkoniyatlariga muvofiqlikni me’yor mezonlari sifatida belgilab, yangi variantning me’yorga kirib borish jarayonini bosqichlarga ajratgan [8]. N. N. Semenyuk talqinida me’yor tarixan o‘zgaruvchan, lekin muayyan davrda nisbatan turg‘un bo‘lgan qo‘llanish qoidalari majmuidir [9]. L. I. Skvortsov ishlab chiqqan me’yorning dinamik nazariyasi kodifikatsiya jonli qo‘llanishdan orqada qolmasligi lozimligini ta’kidlaydi [10]. Variantlarni chastota ko‘rsatkichlari asosida o‘rganish tajribasi L. K. Graudina, V. A. Itskovich va L. P. Katlinskaya lug‘atida mujassam topgan [11]; me’yor siljishini subyektiv baholardan xolis miqdoriy kuzatish sari ko‘chirish mumkinligi aynan shu ishda amalda isbotlangan.

G‘arb sotsiolingvistikasida me’yor masalasi standartlashuv jarayoni bilan bir butunlikda o‘rganiladi. E. Haugen standart tilning shakllanishini tanlash, kodifikatsiya, funksional kengayish va jamiyat tomonidan qabul qilinish bosqichlari orqali tavsiflagan hamda uning mohiyatini “shaklda eng kam, vazifada eng ko‘p variativlik” formulasi bilan ifodalagan [12]. U. Vaynrayx, U. Labov va M. Herzog tilni “tartibli geterogenlik”ka ega tizim deb hisoblaydi; ular uchun variativlik nuqson emas, tilning o‘zgarish qobiliyatini ta’minlovchi zaruriy shartdir [13]. U. Labovning turli yosh guruhlari nutqini qiyoslash orqali davom etayotgan o‘zgarishni bevosita kuzatish mumkinligi haqidagi g‘oyasi “zohiriy vaqt” (apparent time) tamoyili sifatida sotsiolingvistikada mustahkam o‘rin egallagan [14]. R. Barch me’yorni ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida tadqiq etib, uning amal qilishi jamiyat tan olgan me’yor avtoritetlari faoliyatiga bog‘liqligini ko‘rsatgan [15]. J. va L. Milroylar esa har qanday variativlikni “buzilish” sifatida baholashga moyil standart til mafkurasini tanqidiy tahlil ostiga olgan [16].

O‘zbek tilshunosligida adabiy me’yor muammosi dastlab adabiy til va shevalar munosabati masalasi bilan bog‘liq holda ko‘tarilgan. Sh. Shoabdurahmonov o‘zbek adabiy tilining sheva asoslarini, me’yor shakllanishida shevalarning o‘rnini tadqiq etgan [17]. E. Begmatov va A. Mamatov adabiy me’yor nazariyasini maxsus o‘rganib, uning mezonlari, turlari va variantlar bilan munosabatini tizimli yoritgan [18]. R. Qo‘ng‘urov, E. Begmatov va Yo. Tojiyev qo‘llanmasida me’yor nutqning kommunikativ sifatlari bilan aloqadorlikda talqin etilgan [19]. Shunga qaramay, me’yor barqarorligi va harakatchanligining sathlar bo‘ylab taqsimlanishi o‘zbek va ingliz tillari qiyosida hanuz alohida tadqiqot obyekti bo‘lmagan.

**METODOLOGIYA**

Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, tavsifiy va sotsiolingvistik talqin metodlari qo‘llanildi. Kodifikatsiya manbalari, jumladan, imlo qoidalari, izohli lug‘atlar va ingliz tilidagi me’yoriy ma’lumotnomalar (usage guides) o‘zaro qiyoslandi; me’yoriy variantlarning ijtimoiy taqsimotini aniqlashda zohiriy vaqt tamoyiliga tayanildi. Tahlil materiali kodifikatsiya qiluvchi manbalar, matbuot va internet matnlari, shuningdek, muallif to‘plagan jonli nutq kuzatuvlaridan iborat.

TAHLIL VA NATIJALAR

Me’yor barqarorligining funksional asosi uning kommunikativ vazifasi bilan belgilanadi. Adabiy til turli hududlar, ijtimoiy guruhlar va avlodlar o‘rtasida umumiy muloqot vositasi vazifasini o‘taydi; u qanchalik turg‘un bo‘lsa, yozma meros shunchalik uzoq vaqt tushunarli bo‘lib qoladi. Barqarorlikning tayanchlari sirasiga yozma an’ana, kodifikatsiya vositalari, ta’lim tizimi, nufuzli matnlar va jamiyat e’tirof etgan me’yor avtoritetlari kiradi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki,

ISSN 3060-5059 (Online)

barqarorlik til sathlari bo‘ylab bir tekis taqsimlanmagan (1-jadval).

**1-jadval**

**O‘zbek va ingliz tillarida adabiy me’yor barqarorligining sathlar bo‘yicha qiyosiy tavsifi[1]**

| Til sathi | O‘zbek tili | Ingliz tili |
|---|---|---|
| Grafika va imlo | Past: XX asrda yozuv 3 marta almashgan, raqamli muhitda grafik variantlar ko‘p | Yuqori: XVIII asrdan buyon imlo deyarli o‘zgarmagan |
| Grammatika | Yuqori: agglyutinativ affikslar tartibi turg‘un | Yuqori–o‘rta: analitik qurilish turg‘un, ayrim morfologik variantlar faol |
| Leksika | Past: til siyosati va kontaktlar ta’sirida tez yangilanadi | O‘rta: o‘zlashmalar va gender-neytral shakllar hisobiga yangilanadi |
| Talaffuz | O‘rta: adabiy talaffuzga sheva ta’siri kuchli | Past–o‘rta: milliy variantlar va talaffuz me’yorlari xilma-xil |

Grammatik qurilish har ikki tilda ham eng konservativ sath sanaladi. O‘zbek tilining agglyutinativ tabiati affikslar tartibini qat’iy belgilab qo‘yadi: ko‘plik, egalik va kelishik qo‘shimchalarining ketma-ketligi eski o‘zbek tilidan bugungi kungacha o‘zgarmagan, masalan, kitob-lar-imiz-ni, do‘st-lar-i-ning (Абдураҳмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси). Leksikada ham turg‘un o‘zak mavjud. Asosiy tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar asrlar osha shakl va ma’nosini saqlab kelmoqda: suv, tosh, ko‘z, bosh, qo‘l (Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк). Ingliz tilida esa so‘z tartibi o‘rta ingliz tili davrining oxiriga kelib qat’iylashgan va o‘shandan buyon analitik grammatik qurilishning turg‘un tayanchi bo‘lib qolmoqda.

Grafik sath bo‘yicha manzara keskin o‘zgaradi. Ingliz imlosi XVIII asrdan, xususan, S. Jonson lug‘ati nashr etilgandan beri jiddiy o‘zgarishlarga uchramagan [20]. Bu davrda talaffuz sezilarli o‘zgargani bois yozuv tovush tizimidan uzoqlashib ketgan, oqibatda zamonaviy imloda o‘tmish talaffuzining izlari “muzlab” qolgan: knight, write, through (Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language). Haddan ortiq barqarorlikning bahosi ana shu tafovutda ko‘zga tashlanadi. O‘zbek tilida grammatik o‘zak turg‘un qolgani holda imlo me’yori XX asr davomida uch marta tubdan qayta qurildi: 1920-yillar oxirida arab yozuvi lotin yozuviga, 1940-yilda lotin yozuvi kirill yozuviga, 1993-yilda esa kirill yozuvi yana lotin yozuviga almashtirildi. Har bir yozuv islohoti so‘zlarning yozma qiyofasida iz qoldirgan, masalan, цирк – sirk, милиция – militsiya (O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari). Grafika tilning eng tashqi qatlami bo‘lgani uchun ma’muriy qarorlarga ham eng oson bo‘ysunadi: tovush tizimi va grammatikaga daxl qilmasdan uni farmon bilan o‘zgartirish mumkin.

Talaffuz sathi qiyoslanayotgan tillarda oraliq mavqeni egallaydi, biroq uning harakatchanligi turli manbalardan oziqlanadi. Ingliz tilida XX asr o‘rtalarigacha nufuzli hisoblangan Britaniya adabiy talaffuzi (Received Pronunciation) asrning so‘nggi choragidan e’tiboran mavqeini ancha boy berdi, talaffuz lug‘atlari esa endilikda yagona shaklni emas, variantlar qatorini qayd etadi: schedule [ˈʃedjuːl ~ ˈskedʒuːl], either [ˈaɪðə ~ ˈiːðə] (Wells J. C. Longman Pronunciation Dictionary. – “schedule”, “either” lug‘at maqolalari). O‘zbek adabiy talaffuzi yozma me’yorga qaraganda ancha erkin. Qipchoq va o‘g‘uz shevalari vakillari adabiy nutqda ham o‘z talaffuz xususiyatlaridan, jumladan, singarmonizmdan voz kechmaydi, masalan, kelgan ~ kelgen, bolalar ~ balalar (jonli nutqdan). Talaffuz me’yori yozuvda qayd etilmagani tufayli kodifikatsiya ta’siridan qisman xoli bo‘lib, hudud va ijtimoiy muhit omillariga tezroq beriladi.

Ko‘rinadiki, qiyoslanayotgan tillar me’yor barqarorligining deyarli teskari profillarini namoyon etadi. Ingliz tilida imloviy qat’iylik grammatik-leksik moslashuvchanlik bilan uyg‘unlashgan bo‘lsa, o‘zbek tilida grafik beqarorlik fonida grammatik o‘zak mustahkam saqlangan. Bundan kelib chiqadiki, barqarorlikni butun me’yorga bir xil taalluqli yaxlit xususiyat sifatida emas, sathlar kesimida o‘lchanadigan differensial ko‘rsatkich sifatida talqin qilish lozim.

Barqarorlik darajasi sathlar bilangina cheklanmaydi, u funksional uslublar kesimida ham farqlanadi. B. Gavranekning ta’kidlashicha, rasmiy-idoraviy va ilmiy uslublar me’yor talablariga eng qat’iy bo‘ysunadi, badiiy nutq esa me’yordan ongli chekinishga, uni estetik maqsadda “buzish”ga ruxsat beradi [21]. Bu farq me’yorlarning majburiy (imperativ) va ixtiyoriy (dispozitiv) turlarga bo‘linishi bilan chambarchas bog‘liq [22]. Imperativ me’yor variantga yo‘l qo‘ymaydi, undan chetlashish xato sanaladi; dispozitiv me’yor tanlov imkonini saqlab qoladi. O‘zgaruvchanlik avvalo dispozitiv me’yorlar doirasida kechadi. Yangi shakl odatda so‘zlashuv va badiiy uslubda paydo bo‘ladi, keyinroq publitsistikaga o‘tadi, rasmiy uslubga esa eng so‘nggi navbatda kirib boradi. Shu bois rasmiy hujjatlar tili me’yor siljishining eng kechikuvchi bo‘g‘ini sifatida o‘ziga xos “barqarorlik zaxirasi” vazifasini o‘taydi.

O‘zgaruvchanlik manbalari ichki va tashqi omillarga bo‘linadi. Ichki omillar qatoriga analogiya, til tejamkorligi va tizimdagi nomutanosiblikni bartaraf etishga intilish kiradi. Ingliz tilida noto‘g‘ri fe’llarning analogiya ta’sirida to‘g‘ri tuslanishga o‘tishi asrlar davomida davom etib kelayotgan jarayon bo‘lib, bugungi kunda tegishli variantlar Britaniya va Amerika me’yorlari o‘rtasida turlicha taqsimlangan: dreamt ~ dreamed, learnt ~ learned (Peters P. The Cambridge Guide to English Usage). O‘zbek so‘zlashuv nutqida tejamkorlik tamoyili qisqargan shakllarni yuzaga keltiradi, vaholanki, yozma me’yor ularni hozircha qabul qilgani yo‘q, masalan, kelyapti ~ kelvotti, bormoqchi edim ~ bormoqchiydim (jonli nutqdan). Bunday shakllar avval badiiy asarlar dialoglarida so‘zlashuv uslubining belgisi sifatida qo‘llanadi; ularning adabiy me’yorga kirib borishi yoki bormasligi esa jamiyatning baholovchi munosabatiga bog‘liq.

ISSN 3060-5059 (Online)

Tashqi omillar orasida ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarning salmog‘i katta. Mustaqillikdan keyin ma’muriy-siyosiy terminologiyadagi ruscha o‘zlashmalar qisqa muddatda o‘zbekcha yoki arabcha-forscha muqobillar bilan almashtirildi: ministr – vazir, oblast – viloyat, rayon – tuman (Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-ж. – «вазир», «вилоят» сўз мақолалари). Bu holda me’yor siljishi variantlarning tabiiy raqobati mahsuli bo‘lmay, ongli til siyosatining natijasi edi; jarayonning favqulodda tezligi ham shundan. Til kontaktlari boshqa yo‘ldan boradi: ingliz tilidan kirgan so‘zlar o‘zbekcha muqobillar bilan raqobatga kirishadi va g‘olib har doim ham oldindan ma’lum bo‘lavermaydi, masalan, prezentatsiya ~ taqdimot, sponsor ~ homiy, menejer ~ boshqaruvchi (jonli nutqdan). Kuzatishlarimizga ko‘ra, rasmiy nutqda o‘zbekcha shakllar ustun kelsa, yoshlar va biznes muhitida o‘zlashma variant faolroq.

Ingliz tilida tashqi omil sifatida ko‘proq jamiyatning qadriyatlar tizimidagi siljishlar ta’sir ko‘rsatadi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab kasb nomlaridagi gender belgisini neytrallashtirishga intilish me’yorda sezilarli iz qoldirdi: chairman ~ chairperson ~ chair, fireman ~ firefighter (Peters P. The Cambridge Guide to English Usage). Markazlashgan tartibga soluvchi organ bo‘lmasa-da, bu o‘zgarishlar nashriyotlar, ommaviy axborot vositalari va ta’lim muassasalarining uslubiy qo‘llanmalari orqali qisqa vaqtda keng yoyildi.

Me’yor siljishining asosiy mexanizmi variantlar raqobatidir. K. S. Gorbachevich kuzatishlari umumlashtirilsa, bu jarayonni to‘rt bosqichga ajratish mumkin [23]. Birinchi bosqichda yangi shakl me’yordan tashqari hodisa sifatida qayd etiladi va xato deb baholanadi. Ikkinchi bosqichda u muayyan uslub yoki vaziyat bilan cheklangan, “yo‘l qo‘yiladigan” variant maqomini oladi. Uchinchi bosqichda eski va yangi shakllar teng huquqli variantlar sifatida yonma-yon yashaydi. To‘rtinchi bosqichga kelib yangi shakl ustunlik qiladi, eski variant esa lug‘atlarda “eskirgan” yoki “kitobiy” belgisi bilan beriladi. Ingliz tilidagi bir qator variant juftliklari hozir ikkinchi va uchinchi bosqichlar oralig‘ida turibdi, masalan, the data are ~ the data is, different from ~ different than ~ different to (Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language).

Zohiriy vaqt tamoyiliga tayangan kuzatishlar o‘zbek tilida ham variantlarning avlodlararo taqsimotini yaqqol namoyon etadi. Tibbiyot sohasidagi shifokor ~ vrach ~ doktor qatorida o‘zbekcha shakl rasmiy nutq me’yorini, ruscha o‘zlashma sovet davrida ta’lim olgan katta avlod nutqini, xalqaro doktor esa ko‘proq yoshlar nutqini tavsiflaydi (jonli nutqdan). U. Labov talqiniga ko‘ra, avlodlar nutqidagi bunday farq davom etayotgan o‘zgarish belgisi bo‘lib, vrach so‘zining kelgusida faol qo‘llanishdan chiqishini taxmin qilishga asos beradi.

Variantlar raqobatida g‘olibni ko‘p hollarda lisoniy qulaylik emas, ijtimoiy nufuz belgilaydi. U. Labov o‘zgarishlarni ijtimoiy ong darajasiga ko‘ra “yuqoridan” va “quyidan” kechadigan turlarga ajratadi [24]. Yuqoridan kelgan o‘zgarishni nufuzli guruhlar ongli ravishda boshlab beradi, quyidan kelgani esa so‘zlovchilar sezmagan holda, odatda quyi va o‘rta qatlamlar nutqida kuch to‘playdi. Me’yor uchun bu farq muhim, chunki “yuqoridan” kelgan o‘zgarish kodifikatsiyaga tez yo‘l topadi, “quyidan” kelgani esa uzoq vaqt me’yor chegarasidan tashqarida qoladi. P. Trudgill ochiq nufuz bilan bir qatorda yashirin nufuz ham mavjudligini ko‘rsatgan: me’yoriy bo‘lmagan shakl muayyan guruh ichida “o‘ziniki”lik va samimiylik belgisi sifatida qadrlanadi [25]. Norvich shahri nutqidagi -ing qo‘shimchasining ikki xil talaffuzi bunga misol bo‘la oladi: walking ~ walkin’, going ~ goin’ (Trudgill P. Sex, Covert Prestige and Linguistic Change). O‘zbek yoshlari nutqida yashirin nufuz vazifasini ko‘proq ingliz va rus tillaridan kirgan so‘zlar bajaradi: okey, bro, kayf (jonli nutqdan). Tengdoshlar davrasida bu so‘zlar zamonaviylik va guruhga mansublik ramzi hisoblansa, rasmiy vaziyatda ularning qo‘llanishi so‘zlovchi nutq madaniyatining pastligiga ishora sifatida baholanadi.

Me’yor siljishining sur’ati ijtimoiy tarmoqlar tuzilishiga ham bog‘liq [26]. Zich va yopiq tarmoqlarda, chunonchi, qishloq jamoasi yoki mahallada an’anaviy shakllar uzoq saqlanadi, negaki guruh a’zolari bir-birining nutqiy xulqini doimiy nazorat qilib turadi. Shahar muhitidagi siyrak va ochiq tarmoqlar esa yangiliklarni tez qabul qilib, ularni boshqa guruhlarga uzatadi. Shu jihatdan poytaxt va viloyat markazlari o‘zbek adabiy me’yori yangilanishining asosiy o‘choqlari bo‘lsa, qishloq nutqi uning tabiiy “arxivi” vazifasini bajaradi.

Me’yor o‘z vazifasini barqarorlik va o‘zgaruvchanlik bir-birini cheklab, muvozanat holatida turgandagina to‘la ado eta oladi. Barqarorlik haddan oshsa, yozma til jonli nutqdan uzoqlashadi. Chig‘atoy adabiy tilining XIX asr oxiriga kelib “kitobiy” maqom olgani, XX asr boshida jadidlarning adabiy tilni xalq so‘zlashuv tiliga yaqinlashtirish talabini ilgari surgani shundan dalolat beradi. Aksincha, o‘zgaruvchanlik jilovsiz qolsa, adabiy tilning birlashtiruvchi vazifasi zaiflashadi. Raqamli muhitdagi o‘zbek yozuvi bu xavfning jonli ifodasidir: rasmiy imlo qoidalari mavjud bo‘lsa-da, tutuq belgisi hamda o‘, g‘ harflari turli grafik belgilar bilan ifodalanmoqda: O‘zbekiston ~ O'zbekiston ~ O`zbekiston ~ O‘zbekiston (internet matnlaridan). Texnik sabablarga ko‘ra ko‘paygan bu variantlar qidiruv tizimlari, elektron lug‘atlar va avtomatik tahrir dasturlari ishini murakkablashtiradi, zero, grafik jihatdan farqlangan shakllarni kompyuter turli so‘zlar deb qabul qiladi.

Tadqiqot natijalari bir necha xulosaga kelish imkonini berdi. Adabiy me’yorda barqarorlik va o‘zgaruvchanlik bir-birini inkor etmaydi, aksincha, to‘ldiradi; ularning dialektik birligi Praga maktabining “egiluvchan barqarorlik” tushunchasida eng aniq ifodasini topgan. Barqarorlik til sathlari bo‘ylab notekis taqsimlanadi va sathlar kesimida o‘lchanishi kerak: o‘zbek tilida grammatik o‘zak yuqori, grafik-imloviy sath esa past barqarorlikka ega, ingliz tilida manzara buning aksidir.

Me’yor o‘zgaruvchanligi ichki (analogiya, tejamkorlik) va tashqi (til siyosati, til kontaktlari, qadriyatlar tizimidagi siljishlar) omillar ta’sirida yuz beradi; tashqi omillar, xususan, ongli til siyosati o‘zgarish sur’atini keskin tezlashtiradi. Me’yor muvozanatini ta’minlashda kodifikatsiya modeli belgilovchi ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tili uchun markazlashgan kodifikatsiyani korpusga asoslangan tavsifiy tadqiqotlar bilan uyg‘unlashtirish istiqbolli yo‘ldir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston SSRning 1989-yil 21-oktabrdagi «Davlat tili haqida»gi 3561-XI-son Qonuni // O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining Vedomostlari. – 1989. – № 26–28. – 453-modda. – URL: https://lex.uz/docs/-109394.

2. O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida»gi 931-XII-son Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/-112286.
3. O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi 339-son qarori bilan tasdiqlangan // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/-1625271.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5850-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/-4561730.
5. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1973. – URL (qidiruv): https://www.google.com/search?q=Abdurahmonov+Shukurov+O‘zbek+tilining+tarixiy+grammatikasi+1973
6. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. – 1-qism. – Toshkent: Navro‘z, 1997. – URL (qidiruv): https://www.google.com/search?q=Begmatov+Mamatov+Adabiy+norma+nazariyasi
7. Гавранек Б. Задачи литературного языка и его культура // Пражский лингвистический кружок: сборник статей. – М.: Прогресс, 1967. – С. 338–377. – URL (qidiruv): https://www.google.com/search?q=Гавранек+Задачи+литературного+языка+и+его+культура
8. Горбачевич К. С. Вариантность слова и языковая норма: на материале современного русского языка. – Л.: Наука, 1978. – URL (qidiruv): https://www.google.com/search?q=Горбачевич+Вариантность+слова+и+языковая+норма+1978
9. Граудина Л. К., Ицкович В. А., Катлинская Л. П. Грамматическая правильность русской речи: опыт частотно-стилистического словаря вариантов. – М.: Наука, 1976. – URL (qidiruv): https://www.google.com/search?q=Граудина+Ицкович+Катлинская+Грамматическая+правильность+русской+речи
10. Ицкович В. А. Языковая норма. – М.: Просвещение, 1968. – URL (qidiruv): https://www.google.com/search?q=Ицкович+Языковая+норма+1968
11. Матезиус В. О необходимости стабильности литературного языка // Пражский лингвистический кружок: сборник статей / сост., ред. и предисл. Н. А. Кондрашова. – М.: Прогресс, 1967. – С. 378–393. – URL (qidiruv): https://www.google.com/search?q=Матезиус+О+необходимости+стабильности+литературного+языка
12. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk: 3 tomlik / tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov. – Toshkent: O‘zFA nashriyoti, 1960–1963. – URL (qidiruv): https://www.google.com/search?q=Mahmud+Koshgariy+Devonu+lugotit+turk+Mutallibov+1960
13. Семенюк Н. Н. Норма // Лингвистический энциклопедический словарь / гл. ред. В. Н. Ярцева. – М.: Советская энциклопедия, 1990. – С. 337–339. – URL: https://tapemark.narod.ru/les/
14. Скворцов Л. И. Теоретические основы культуры речи. – М.: Наука, 1980. – 352 с. – URL: https://search.rsl.ru/ru/record/01001005364.
15. Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek adabiy tili va o‘zbek xalq shevalari. – Toshkent: Fan, 1962. – URL (qidiruv): https://www.google.com/search?q=Shoabdurahmonov+O‘zbek+adabiy+tili+va+o‘zbek+xalq+shevalari+1962
16. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 5 jildlik. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008. – URL: https://izoh.uz/
17. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – URL (qidiruv): https://www.google.com/search?q=Qo‘ng‘urov+Begmatov+Tojiyev+Nutq+madaniyati+va+uslubiyat+asoslari
18. Bartsch R. Norms of Language: Theoretical and Practical Aspects. – London; New York: Longman, 1987. – 348 p. – ISBN: 9780582004191. – URL: https://books.google.com/books?id=V2SyAAAAIAAJ.
19. Coseriu E. Sistema, norma y habla. – Montevideo: Universidad de la República, 1952. – URL (qidiruv): https://www.google.com/search?q=Eugenio+Coseriu+Sistema+norma+y+habla+1952
20. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – URL (qidiruv): https://www.google.com/search?q=David+Crystal+Cambridge+Encyclopedia+English+Language+2nd+edition+2003
21. Egamnazarova D. S. Unraveling Linguistic Deviation: Some Thoughts on the Variances in Language Patterns // Journal of Language and Linguistics. – 2023. – Vol. 6, № 4. – URL (qidiruv): https://www.google.com/search?q=Egamnazarova+Unraveling+Linguistic+Deviation+2023
22. Haugen E. Dialect, Language, Nation // American Anthropologist. – 1966. – Vol. 68, № 4. – P. 922–935. – DOI: 10.1525/aa.1966.68.4.02a00040. – URL: https://doi.org/10.1525/aa.1966.68.4.02a00040.
23. Johnson S. A Dictionary of the English Language: In 2 Vols. – London: W. Strahan, 1755. – URL: https://johnsonsdictionaryonline.com/
24. Labov W. Principles of Linguistic Change. – Vol. 1: Internal Factors. – Oxford; Cambridge, MA: Blackwell, 1994. – 664 p. – ISBN: 9780631179146. – URL: https://www.wiley-vch.de/de/fachgebiete/geistes-und-sozialwissenschaften/principles-of-linguistic-change-volume-1-978-0-631-17914-6.
25. Milroy J., Milroy L. Linguistic Change, Social Network and Speaker Innovation // Journal of Linguistics. – 1985. – Vol. 21, № 2. – P. 339–384. – DOI: 10.1017/S0022226700010306. – URL: https://doi.org/10.1017/S0022226700010306.
26. Peters P. The Cambridge Guide to English Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004. – 622 p. – DOI: 10.1017/CBO9780511487040. – URL: https://doi.org/10.1017/CBO9780511487040